

O'ZBEKISTON DAVLAT BYUDJETINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YECHIM

Akbarova Barno Shuxratovna

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Iqtisodiy statistika kafedrasida dotsenti*

Tojiboyeva Farzona Kudrat qizi

*Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Davlat byudjeti – davlatning pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi hisoblanadi va unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutilgan bo'ladi. Davlat byudjeti boshqaruvi bu davlatning moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, xarajatlarni nazorat qilish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim mexanizm hisoblanadi. Davlat byudjetini innovatsion yechimlar orqali boshqarish so'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi muhim maqsadlaridan biri hisoblanmoqda.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, daromadlar, xarajatlar, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, ijtimoiy xarajatlar, iqtisodiy xarajatlar, innovatsiya, sun'iy intellekt, big data, blockchain, yashil byudjetlashtirish, shaffoflik, maxfiylik, korrupsiya.

Аннотация: Государственный бюджет представляет собой централизованный фонд государственных средств и включает источники доходов и объемы поступлений из них, а также направления и объемы использования средств, выделяемых на конкретные цели в течение финансового года. Управление государственным бюджетом является важным механизмом эффективного распределения государственных финансовых ресурсов, контроля расходов и обеспечения экономического развития. Управление государственным бюджетом посредством инновационных решений стало одной из важных целей Республики Узбекистан в последние годы.

Ключевые слова: государственный бюджет, доходы, расходы, прямые налоги, косвенные налоги, социальные расходы, экономические расходы, инновации, искусственный интеллект, большие данные, блокчейн, зеленое бюджетирование, прозрачность, конфиденциальность, коррупция.

Annotation: The state budget is a centralized fund of state funds and includes sources of income and the amount of receipts from them, as well as the directions and amounts of funds allocated for specific purposes during the fiscal year. State budget management is an important mechanism for the effective allocation of state financial resources, control of expenditures, and ensuring

economic development. Managing the state budget through innovative solutions has been one of the important goals of the Republic of Uzbekistan in recent years.

Key words: state budget, revenues, expenditures, direct taxes, indirect taxes, social spending, economic spending, innovation, artificial intelligence, big data, blockchain, green budgeting, transparency, privacy, corruption.

Kirish

Davlat byudjetining daromadlari bo'lganidek uning xarajatlari ham bo'ladi va bu byudjetni to'g'ri va oqilona taqsimlash, boshqarish, nazorat qilishni talab etadi. Bu har bir davlat uchun muhim hisoblanadi. Davlat byudjetini boshqaruvi ma'lum bir ijobiy natijaga erishish uchun, uslublar va tamoyillar yig'indisi orqali biror bir obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etish hisoblanadi. Byudjet tizmini maxsus boshqaruvchi subyektlar – O'zbekiston Respublikasi Iqtisod va Moliya vazirligi va uning quyi organlari, Soliq qo'mitasi va boshqa organlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Davlat byudjetini boshqaruvida innovatsion yechimlar hozirgi kunda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bu kabi loyiha va yechimlardan foydalanib kelmoqda. Bu kabi innovatsiyalarning afzalliklari ko'p.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadining asosiy manbalaridan biri soliqlar hisoblanadi. So'ngi yillarda byudjet daromadi manbaini 80-85% ini soliq tashkil qilmoqda. Bevosita soliq turlaridan biri foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'lsa, bilvosita soliq turlari esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va bojxona soliqlaridir. Bundan tashqari "boshqa daromadlar" deb keltirilgan ushbu byudjet daromadi manbai tarkibiga kiradiganlar – jarima, peniyalar, litsenziyalar uchun to'lovlar, kapital daromadlar, davlatga tegishli bo'lgan korxonalar daromadlari va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetning xarajatlari ham daromadlari kabi ortib bormoqda. Xarajatlari tarkibiga ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlar hamda investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish va boshqa xarajatlar kiradi. Ijtimoiy xarajatalar – ta'lim sohasi va sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya (pensiya, nafaqalar, moddiy yordamlar va bolalar uchun davlat stipendiyalari va garntlar), madaniyat va sport va shu kabi sohalar kiradi. Iqtisodiy xarajatlar tarkibiga esa infratuzilma va qurilish, qishloq xo'jaligi, sanoat va ishlab chiqarish, innovatsiyalar va texnologiyalar va turli iqtisodiy sohalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xarajatlar kiradi va so'ngi "boshqa xarajatlar" tarkibiga esa davlat qarzlarini qoplash, davlatning noaniq yoki kutilmagan xarajatlari, favqulotda vaziyatlar va ofatlarni oldini olish va ularga tayyorgarlik ko'rish dasturlari uchun ajratiladigan pul mablag'lari kiradi.


1-jadvalda ko'rish mumkinki 2024-yildagi byudjet daromadi 2020-yildagiga nisbatan 2 barobarga ortgan, soliq tushumlarining yillar kesimida o'sib borishi davlat byudjetining daromadini ham o'sib borishining sababidir. "Boshqa daromadlar" byudjet daromadi manbasining 15-20% ini tashkil etsa, bevosita soliq turi davlat byudjetining 30-35% ini tashkil qilsa, bilvosita 30-40% ini tashkil etgan.

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
I. Daromadlar(mlrd.so'm)	132 938,0	164 799,4	201 863,7	231 721,3	274 423,0
Absolyut o'sish		31 861,4	37 064,3	29 857,6	42 701,7
Dinamika indeksi		124,0	122,5	114,8	118,4
1. Bevosita soliqlar	45 206,9	58 930,4	64 447,1	73 103,6	90 833,0
2. Bilvosita soliqlar	46 428,4	56 290,4	71 390,2	83 325,8	88 341,0
3. Resurs to'lovlari va mulk solig'i	21 257,0	23 036,4	23 912,8	28 079,5	36 363,0
4. Boshqa daromadlar	20 045,8	26 542,2	42 113,7	47 212,5	58 886,0
II. XARAJATLAR(mlrd.so'm)	144 142,70	188 257,10	236 692,00	281 097,40	310 926,20
Absolyut o'sish		44 114,40	48 434,90	44 405,40	29 828,80
Dinamika indeksi		130,60	125,73	118,76	110,61
1. Ijtimoiy xarajatlar	74 231,80	92 013,60	117 691,90	137 246,80	152 347,60
2. Iqtisodiyot xarajatlari	16 692,80	21 169,70	34 090,90	42 926,90	38 417,00
3. Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	18 843,70	29 900,10	27 807,00	29 581,60	28 482,20
4. Boshqa xarajatlar	34 374,40	45 173,7	57 102,2	71 342,1	91 679,4
Byudjet balansi	-11 204,70	-23 457,70	-34 828,30	-49 376,10	-36 503,20


1-jadval. Davlat byudjeti daromadi (manbalari), xarajatlari (tarkibi).

2021-yilla 2020-yilga nisbatan 24% ga o'sgan bo'lsa, 2022-yilda esa 22.5% ni va 2023-yilda bu ko'rsatkich 14.8%ga tushgan, 2024-yil 2023-yilga nisbatan 18.4% o'sgan. So'ngi 2 yillikda byudjet daromadi dinamik o'sishi avvalgi yillarga nisbatan kamaygan. Davlat byudjeti xarajatlari tarkiblaridan hisoblangan ijtimoiy xarajatlar 2020-2024-yillar kesimida jami xarajatlarning 50% ini tashkil etmoqda. Undan keyingi o'rinlarda esa "boshqa xarajatlar" 20-30% ini tashkil etmoqda. 2020-yilda investitsiyalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan xarajatlar 18 843.7 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa keying 4 yillikda 27 807 mlrd.so'mdan 29 900 mlrd.so'mni tashkil etgan. Iqtisodiy xarajatlar esa byudjet xarajatining so'ngi 5 yili davomida 10-15% larni tashkil etgan.

Byudjet balansi esa defitsit bilan chiqmoqda. So'ngi 5 yillik byudjet balansi natijalariga ko'ra 2023-yil eng yuqori natijaga ega, 49 376,1 mlrd.so'm kamomat bilan chiqqan. Bu kabi kamomatlar qarz olishlarga olib keladi. Davlat qarzi ichki va tashqi qarzlariga ega. So'ngi 5 yillikda umumiy qarz miqdori YaIM ga nisbatan 32-35% gat eng. Bu oraliqdagi qarz darajasi xalqaro investorlar va reyting agentliklari tomonidan ijobiy baholanadi.



1-garfik. Davlat byudjetining daromadi va uning manbalari



2-grafik. Davlat byudjetining xarajati va uning tarkiblari

1 va 2-garifklarda byudjet daromadi va uning manbalari hamda xarajati va uning tarkiblarining yillar kesimida barqaror o'sib borish tendensiyasiga ega. Soliq tushumlari va boshqa turdagi daromadlarning barqaror o'sib borishi byudjet daromadining umumiy qiymatining barqaror o'sishini ta'minlagan bo'lsa, barcha xarajatlar ham byudjetning umumiy xarajatlarining barqaror o'sishiga sababdir.

So'ngi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga keng e'tibor qaratilmoqda va ko'pgina soxalarda keskin o'zgarishlar olib borilmoqda. Bir qancha vazirliklar, agentlik va qo'mitalarning o'z elektron saytlari, dasturlari orqali fuqarolar o'z muommolariga qisqa muddat ichida yechim topmoqda.

Bir qancha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda xizmatlar onlayn tarzda olib boriladi, bu esa fuqarolarning vaqtlarini tejashga, ma'lumotlarning maxfiyligiga va shaffofligiga yordam beradi. Bunga misol esa Janubiy Koreya Respublikasidir. Janubiy Koreya byudjet boshqaruvida innovatsion yechimlar joriy etish bo'yicha dunyoda yetakchi davlatlardan hisoblanadi. Janubiy Koreyada sun'iy intellekt AI va big data, blockchайдan keng foydalanib kelmoqda.

1. e-Budget tizimi. Ushbu tizimning maqsadi byudjetni rejalashtirish, taqsimlash, sarflash va hisobotlarni avtomatlashtirish orqali byudjet jarayonlarini soddalashtirish va shaffoflikni oshirishdir. Bu tizim 2000-yilda joriy etilgan.

2. Korea ON-Line E-Procurement System (KONEPS) - davlat xaridlari jarayonlarini raqamlashtirish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan. 2002-yil joriy etilgan.

3. Participatory Budgeting (Fuqarolik Byudjeti) - fuqarolarni byudjet jarayonlariga jalb qilish va ularning fikrlarini hisobga olishga qaratilgan hisoblanadi. 2010-yilda joriy etilgan bo'lib uning foydasi: fuqarolarning davlat ishlariga ishonchini oshirish va byudjetning ijtimoiy jihatdan muhim sohalarga yo'naltirilishidir.

4. Green Budgeting (Yashil Byudjetlashtirish) - Byudjetni ekologik barqarorlik tamoyillari asosida boshqarish. Joriy etilgan vaqti: 2010-yillarda joriy etilgan. Afzalliklari esa atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni o'z ichiga qamarab oladi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda ekologiyaga bo'lgan e'tibor kuchaydi va 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Green Budgeting dasturi aynan O'zbekiston o'z manfaati uchun foydalana oladi. Joriy yil uchun qo'yilgan reja va maqsadlarga erishishda moliyalashtirish va nazorat qilish funksiyalarini shaffofligini ta'minlaydi.

Janubiy Koreya byudjet boshqaruvida xalqaro standartlarni qo'llaydi. Masalan, International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) ga rioya qilish orqali byudjet hisobotlari xalqaro miqyosda qabul qilinadi. Bu yondashuv mamlakatning xalqaro moliyaviy obro'sini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori imzolangan edi. J.Koreyaning ushbu dasturini o'rganish va undan andoz olish orqali foydalansa bo'ladi.

Janubiy Koreya davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali byudjetni tejashga erishdi. Masalan, hujjatlar va jarayonlarni onlayn tarzda amalga oshirish orqali xarajatlar kamaytirildi. Digital Government tizimi orqali fuqarolar davlat xizmatlaridan foydalanishda vaqt va resurslarni tejash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Janubiy Koreyaning byudjet boshqaruvidagi innovatsion dasturlari byudjetni shaffof, samarali va fuqarolar uchun ochiq qilishga qaratilgan. Byudjet ma'lumotlarini himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun Janubiy Koreya ilg'or texnologiyalarni qo'llab kelmoqda. Bu moliyaviy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Biroq, har bir dasturning o'ziga xos kamchiliklari mavjud, ularni bartaraf etish uchun doimiy ravishda yangilanishlar va takomillashtirishlar amalga oshirilishni talab etadi.. Bu yondashuvlar nafaqat Janubiy Koreya, balki boshqa davlatlar uchun hamda O'zbekiston ushun ham yaxshi va kerakli namuna bo'la oladi.

Janubiy Koreyaning bir qancha innovatsion g'oyalari, yechimlari va dasturlari ko'pgina yaxshi natijalarga va yutuqlarga egadir. Yuqorida keltirib o'tilgan dasturlar byudjet shaffofligiga va korrupsiyaning sezilarli darajada kamiyishiga erishdi. Green Budgeting orqali ekologiyani muhofaza qilishga qaratilgan loyihalar moliyalashtirildi. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim yutuqlarga erishildi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosati samaradorligi oshdi. Kelajakda ushbu yechimlar yanada takomillashtirilib, byudjet boshqaruvini yanada samarali va shaffof qilishga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi PF "O'zbekiston — 2030" strategiyasining maqsadlaridan biri hisoblangan "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish"da 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari ko'zda tutilganlaridan biri "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish va Markirovkalash va raqamlashtirish tizimi samarasini oshirish va kengaytirish orqali soliq ma'murchiligi tizimining samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan hisoblanadi. Maqsadlardan yana

biri esa “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish, uning asosi bo’lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko’rsatkichlarini keskin oshirish hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasining o’z oldiga qo’ygan maqsadlari, rejalariga erishish uchun ushbu keltirilgan dastur, loyihalar kerakli baza bo’la oladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytib o’tish mumkinki, har sohada innovatsiya, yangiliklar muhimdir. Davlatning byudjet boshqaruvidagi shaffoflik, innovatsiyalar esa har bir mamlakatning, mamlakatdagi fuqarolarning farovonliklari, mamlakatning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Yuqorida keltirib o’tilgan Janubiy Koreyaning innovatsion loyihalari O’zbekistonning maqsadlari va rejalarini amalga oshirishda andoza sifatida foydalansa bo’ladi, nafaqat Janubiy Koreya boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning innovatsion yechimlaridan andoza sifatida foydalanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. J.R. Zaynalov, B.Sh.Xusanov, S.S.Aliyev, Sh.M.Latipov “Davlat byudjeti” O’quv qo’llanma, 2021—316 bet
2. <https://www.imv.uz/> -O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlar xarajatlari.
3. <https://www.moef.go.kr-> Janubiy Koreya Iqtisodiyot va Moliya vazirligi.
4. <https://www.participatorybudgeting.org> – Fuqarolik ishtiroki va shaffoflik bo’yicha manbalar. Participatory Budgeting in South Korea.
5. <https://www.greenbudget.kr> – Ekologik byudjetlashtirish va yashil texnologiyalar. Green Budgeting in South Korea.
6. <https://lex.uz/mact/-27999-> O’zbekiston Respublikasining qonuni. Budjet tizimi to’g’risida.

KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIDA ICHKI AUDITNING ROLI

Hojiyeva Gulnora Xabibullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Audit kafedrasi assistenti

Bugungi murakkab iqtisodiy munosabatlar sharoitida ichki auditning imkoniyatlari kengayib, turli sohalarida keng qo’llanmoqda, bu esa uni, tashkilotning umumiy boshqaruvi va muvaffaqiyatiga sezilarli ta’sir ko’rsatishiga olib kelmoqda. Texnologiyalar rivojlanishi va global biznesni boshqarishning murakkablashuvi ichki auditning ahamiyatini yanada oshirib, uning zaruriyatini yuzaga olib chiqmoqda.

Iqtisodiy munosabatlar yaxshi rivojlanayotgan bugungi Yangi O’zbekistonda ko’plab sohalar qatorida auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shu o’rinda, bundan bir necha yil oldin O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ushbu sohani isloh qilish uchun qabul qilingan qonun hujjatlarini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Bunday islohotlar bugungi